E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O’zbekiston Qurolli kuchlari

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-42

Oripov Shohjahon Furqat o’g’li

Qarshi Davlat Universitet Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Abdirashidova Sabina Saydulla qizi

Qarshi Davlat Universitet Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolani mazmuni shundan iboratki O’zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va harbiy armiyasi haqida yoritib o’tilgan. Shu qatorda O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining tashkil topishi va jahon davlatlar ichida reytingi ochib berilgan.

Kalit so’zlar

AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Koreya, Yaponiya, SSSR, strategik, O’zbekiston, MDH, GFP, BTR.

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining saviyasi jahon reytinggida ham yuqori turadi. Reytinga ko’ra AQSH armiyasi eng qudratli deb topilgan bo’lsa, Rossiya va Xitoy armiyasi kuchli uchlikdan o’rin olgan. Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya armiyasi esa kuchli o’nlikka kirgan. Qayd etish joiz, GFP ning 2014-yilgi reytingida ham O’zbekiston 48-o’rinda borayotgan edi. Dunyo davlatlarining harbiy salohiyatini belgilovchi Global Firepower Index’ saytining yangilangan reytingida O’zbekiston Qurolli kuchlari Markaziy Osiyo hududida birinchi, MDH davlatlari orasida beshinchi va dunyoning 145 davlati orasida esa 62-o’rinni egalladi. 2022-yilga kelib O’zbekiston armiyasi jahonning 106 mamlakati qurolli kuchlari o’rin olgan jahon armiyasi reytingida 54-o’rinni egallagan. Global Fire Power (GFP) ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekiston ixtiyorida hozirgi vaqtda 420 ta tank, 1215 ta BTR (zirhli transport vositasi), 98 ta raketa tizimlari, 70 ta qiruvchi samolyot, 65 ta vertolyot, xususan, 35ta hujumkor vertolyot va boshqa ko’plab qurol-aslahaga ega, qurol ko’tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo’lgan aholisi 15,7 millondan oshadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O’zbekistondan tashqari Qozog’iston ham reytingdan o’rin olgan bo’lib, GFP uni 80- o’ringa joylashtirgan. O’zbekiston hududiy jihatdan o’ziga qo’shni bo’lgan, Afg’oniston 76-o’rinni egallagan, Tojikiston, Qirg’iziston va Turkmaniston reytingga kiritilmagan.[1] Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizdagi yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo’lmaydigan dolzarb vazifalarni qo’ymoqda. Shunday mas’uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlarimiz, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o’rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu ma’noda aytib o’tish kerakki, muqaddas qasamyodiga

doim sodiq, el-yurt himoyasi yo'lida metin qalqon bo'lgan mard va jasur harbiylarimiz O'zbekistonning chinakam vatanparvar bahodirlari desak ,ayni haqiqat bo'ladi. Hozirgi kunlarda "Xalq va armiya bir tan-u bir jondir" degan tamoyil asosida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda fuqolarimiz armiyaning har tomonlama yordami va ko'magini hayotning barcha soharida amalda his etmoqdalar. Ayniqsa, murakkab sinov davri bo'lgan pandemiya paytida va favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etishda, biz uchun hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho boylik -tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilishda bu yakdillik yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 31-avgustdagi " O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'risidagi"gi bayonotida "Davlat mustaqilligini,hududiy yaxlitligini, fuqoralarning Konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlar vazirligi va Milliy gvardiya tuzildi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining `1991-yil 6- sentabrdagi farmoniga asosan,Mudofa ishlari vazirligi tashkil etildi, uning shtab tizimi va vakolatlari belgilandi. 1991-yil 10-sentabrdagi farmonga binoan, Mudofaa vaziri ayni vaqtda Milliy gvardiya qo'mondoni etib tayinlandi. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarining tashkil topishi 1992-yil 14-yanvardagi Ozbekiston Respublikasi Oliy Sovetining qarori hisoblanadi, unga ko'ra sobiq SSSR Qurolli Kuchlarini O'zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy qismlari , birlashmalari, harbiy bilim yurtlari,harbiy muassasalari va tashkilotlari Ozbekiston Respublikasi ixtiyoriga, yurisdiksiyasiga o'tkazildi va ularning moddiy ta'minoti joriy qilindi.Mintaqada shakllangan harbiy-siyosiy va harbiy- strategik sharoitga ko'ra va bu dunyoda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarning tahlilidan kelib chiqib, 1992-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti "Mudofaa to'g'risidagi" "Umumjahon majburiyatlar va harbiy xizmat" to'g'risida "Muqobil xizmat" to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Yosh mustaqil davlat talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarining yaratilishida mustahkam qununiy poydevor yaratdi. Qurolli Kuchlarni qayta qurish uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Birinchi davrda (1992-1993) katta o'zgarishlar kiritish ko'zda tutilmagan va kerakli texnika va qurol-yaroqlarga ega bo'lgan quruqlikdagi qo'shinlarni boshqarish organlari joriy qilindi.Ikkinchi davr (1994-1996) davomida polklarni brigadalarga aylantirish amalga oshirildi, hamda maxsus qo'shin turlari qismlari va birlashmalari qayta tashkil etildi, va ular uchun oz miqdordagi mablag' talab qiluvchi qurol-yarog' va texnikalar sotib olindi.Uchinchi davrda (1997-2000) yangi birlashmalar va qismlar tashkil etildi, ko'plab qurol-yarog'lar sotib olindi va Qurolli Kuchlar tarkibiga aniqlik kiritildi. 1992-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Chegara qo'shinlari bo'limalari haqida"gi farmoni bilan Milliy Xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi va O'rta Osiyo Chegara qo'shinlari bo'limlari uning tarkibiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1992-yil 12-noyabrdagi "Ozbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo hujumimiga qarshi harbiy qismlar haqida"gi, 13-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi hududididda joylashgan kimyoviy harbiy qisimlar haqida"gi farmonlari bilan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turdagi qo'shinlar respublika tasarrufiga olingan va sifat jihatdan takomilashtirilgan. Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlandi "1993-yil 22-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Kuchlari harbiy qismining Jangovar Bayonoti to'g'risida"gi prezident farmoni imzolanib, Qurolli Kuchlar Jangovar Bayonotining yagona namunasi belgilandi. Ozbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilar kunini belgilash to'g'risida"gi qununiga binoan 14-yanvar Vatan himoyachilar kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tuzishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining huquqiy me'yorlari, Yevropadagi Milliy Xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki yakunlovchi akti, MDH kollektiv xavfsizlik shartnomasi kabi xalqaro hujjatlariga rioya qilindi. Ozbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlangach, oldindagi vazifa uni zamon talablari asosida isloh qilishdan iborat bo'ldi. Buni, avvalo, qo'shinlar qo'llanishining strategik va taktik jihatidan kelib chiqib, Qurolli Kuchlar tuzilishi asosi O'zbekiston Respublikasini himoya qila oladigan qo'shinlar va maxsus qo'shinlarni tuzishga qaratildi. Bular: Harbiy havo kuchlari va quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidagi mudofaa qo'shinlar maxsus va muhandislik-quruvchilik qo'shinlari: Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari: Milliy xavfsizlik xizmatining harbiylashtirgan qismlari va Chegara qo'shinlari. Qurolli Kuchlarning o'zagini tashkil etuvchi quruqlikdagi qo'shinlar tajovuzkorligining zarbasini qaytarishga, egallab turilgan mintaqa marralarni qo'ldan bermaslikka, shuningdek, dushman qo'shinlarining bostirib kirgan guruhlarini tor-mor qilishga mo'ljallangandir. Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tankchi va artilliya qo'shilmalari va qismlari, havo desanti, hujumchi desanti, havo hujumidagi mudofaa bo'limlari, tez harakat qiluvchi kuchlar qismlari, ta'minot qismlari va bo'linmalari kiradi.[2-216-217] Shuni ham aytib o'tish kerakki, armiyaning kuchi faqatgina uning jangovar tayyorlagarligi, harakatchanligi, eng yangi qurol-yarog'lar bilan taminlanganlik bilan emas, balki Qurolli Kuchlarimiz saflari professional tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan qay darajada to'ldirilgan, ofitser, serjant va askarlarning ma'naviy, ahloqiy-ruhiy fazilatlari, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqoti, ona-Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissining naqadar yuksak ekani bilan belgilangan. Bu maqsadlarga erishish uchun ko'plab sifatli ta'lim bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila-a'zolari ehtiyojlariga javob beradigan zamonaviy harbiy shaharchalar barpo etish ham talab qilinadi. Bu ishlarning ahamiyatlik tomoni shundaki, avvalambor, bugungi sharoitda faqat puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan, har tomonlama yaxshi ta'minlangan va ijtimoiy himoyalangan Qurolli Kuchlargina xavfsizlikka va barqarorlikning, sarhadlarimiz dahlsizligi va mamlakatimiz hududiy yaxlitligining, pirovard natijada el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligining, osuda hayotimning mustaqil va ishonchli kafolatlari bo'la oladi.[3-190-191] Afg'onistondagi vaziyatning tobora murakkablashib borayotgani, narkotrifaik, xalqaro terrorizm, ekstremizm keng tus olayotgani, bizga chegaradosh ba'zi mamlakatlarda yuzaga kelgan beqarorlik, shuningdek,mintaqamizda boshqa tahdid va xavf-xatarlarning saqlanib qolyotgani bizdan Qurolli Kuchlarimizning harbiy tayyorgarligini va jangovar qobilyatini muttasil oshirish, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, uning davlat chegarlarini himoya qilish va qo'riqlash borasidagi choralarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi bizdan doimo hushyor va ogoh bo'lish, yaqin atrofimizda ig'vo qo'zg'atib, keskinlik va qarama-qarshilik o'choqlarini keltirib chiqarishgan[4-167] qaratilgan har qanday urinishlarni

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

bartaraf etishga tayyor turishi talab qilinadi. Biz zamonaviy, professional asosda armiyani barpo etishda, avvalambor, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, shu yurtning suvini ichib, tuzini totib,shu zaminda tarbiya olib, voyaga yetgan vatanparvar fuqoralarimizga tayanamiz. Mustaqillik - bu avvalo huquq demakdir, ya'ni, har qaysi xalq va jamiyatning o'z kuchi va qudratiga suyanib, ota- bobolarining asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, o'zi istagan tarzda hayot qurish, hech kimga qaram va tobe bo'lmay yashash huquqidir. Bu huquqni himoya qilish uchun Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrash, el-yurtimizni har qanday xavf-xatarlardan saqlash, bizga yovuz niyat bilan ko'z olaytirib qaraydigan g'anim va dushmalarimizga qaqshatqich zarba berishga qodir bo'lgan qudratli Qurolli Kuchlarga ega bo'lishimiz kerak. Nega deganda, o'z istiqloli va ozodligini qadrini bilmaydigan, uni himoya qila olmaydigan millat hech qachon erkin yashay olmaydi, kimgadir itoat qilishga, bo'yin egishga majbur bo'ladi. Xalqimizda ham bir maqol bor "Agar kimki o'z armiyasini boqmasa, ertaga o'zgalar armiyasini boqishga majbur bo'ladi".[5-14] Harbiy xizmat jarayonida har bir yosh askar bilan alohida ish olib borishimiz, ularni, avvalo, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi jasur ajdodlarimizning munosib vorislarini ona Vatanimizga haqiqiy himoyachi etib tarbiyalashimiz zarur. Nega deganda, armiyani tom ma'noda armiya qiladigan yorug' yuz bilan chiqishga asos bo'ladigan, uning jangovar qudrati va harbiy mahoratini yuksaltiradigan kuch-bu armiya saflarida xizmat qiladigan insonlardir.[6-26]

Xulosa: Shuni unutmaslik kerakki, har bir xizmatchi-u general yoki ofiser bo'ladimi, serjant yoki oliy askar bo'ladimi bundan qat'iy nazar, ularning barchasi dunyoda yagona atalmish O'zbekistonimizning farzandlaridir. Ularning zimmasidagi mas'ulyatli va muqaddas vazifa ham bitta ona yurtimizni, xalqimizni ishonchli himoya qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1 "Uzbekiston Millitary strength" O'zbekiston jahonning eng qudratli armiyalari reytingida 48-o'rinni egalladi, 2014-07-17. Arxivlandi, qaraladi: 2014-07-16.(uz)

2 "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 12-jild davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 700129, Navoiy ko'chasi, 30-uy, Toshkent-2006, 216-217-bet. (krl)

3 Islom Karimov demokratik islohatlarini yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. Toshkent-2011, "O'zbekiston" nashiryot-matbaa ijodiy uyi, 190-191bet, (krl).

4.Islom Karimov O'zbekiston erishgan yutuq va marralar –Biz tanlagan islohatlar yo'lining tasdig'dir.Toshkent-2014,""nashriyot –madbaa ijodiy uyi,167-bet(uz).

5 Islom Karimov Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning, tinch va osoyishta xayotimizning mustahkam kafolatidir. Toshkent-2003, "O'zbekiston" 14-bet, (krl).

6 Milliy armiyamiz- mustaqilligimizning, tinch va osoyishta xayotimizning mustahkam kafolatlanadi. Toshkent-2003, "O'zbekiston" 26-bet,(krl)